

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.1./DHRJ4687>  
UDC: 343.24(045)(575.1)

## JAZO TAYINLASHDA YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLARNI HISOBGA OLISH MASALALARI

Rozimova Qunduz Yuldashevna,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat huquqi, kriminologiya va  
korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasи dotsenti,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ORCID: 0000-0003-4475-0455  
e-mail: q.rozimova@gmail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yengilroq jazo tayinlashda jinoyat qonunida belgilangan jazoni yengillashtiruvchi holatlar muhim ahamiyat kasb etishi, shuningdek, yengilroq jazo tayinlash bevosita jazoni yengillashtiruvchi holatlar bilan bog'liqligi bo'yicha nazariy va huquqiy asoslar ko'rsatib berilgan. Maqolada milliy va xorijiy olimlarning jazoni yengillashtiruvchi holatlar to'g'risidagi fikrlari guruhlarga bo'lib o'rganilgan. Shuningdek, JKning 55-moddasida jazoni yengillashtiruvchi holatlar nazarda tutilgan bo'lib, ular jazo tayinlash jarayonida bevosita sudlar tomonidan qo'llanishi bayon etilgan. Yengillashtiruvchi holat JK Maxsus qismining tegishli moddalarida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, jazo tayinlashda hisobga olinmasligi lozimligi misollar bilan asoslangan. Jazo tayinlashda hisobga olinadigan yengillashtiruvchi holatlar yuzasidan MDH davlatlari Jinoyat kodekslari normalari tahlili keltirilgan. Jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holatlar ro'yxatini kengaytirish lozimligi ta'kidlanib, asoslantirilgan takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** jazo, jazo tayinlash, ayb shakli, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, qilmish, javobgarlik, jinoyat sodir etish usuli, motiv, qilmishning xavflilik darajasi, tibbiy yoki boshqa tarzda yordam ko'rsatish xususiyati, boshqa holatlar.

### УЧЕТ СМЯГЧАЮЩИХ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ ПРИ НАЗНАЧЕНИИ НАКАЗАНИЯ

Розимова Кундуз Юлдашевна,  
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент  
Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В статье указано, что теоретико-правовые основания значения установленных уголовным законом смягчающих обстоятельств при назначении более легкого наказания, а также то, что назначение более легкого наказания непосредственно связано со смягчающими обстоятельствами. В статье исследуются мнения отечественных и зарубежных ученых о правовой природе смягчающих обстоятельств. Также в статье 55 УК предусмотрены смягчающие обстоятельства, которые непосредственно используются судами при вынесении приговора. В то же время, если смягчающее обстоятельство предусмотрено в качестве необходимого признака преступления в соответствующих статьях Особенной части УК, то на практике оно не учитывается при назначении наказания. В данной статье также проводится анализ норм Уголовных кодексов стран СНГ относительно смягчающих обстоятельств, учитываемых при назначении наказания. Также в данной статье подчеркивается

необходимость расширения перечня смягчающих обстоятельств при назначении наказания, даются обоснованные предложения.

**Ключевые слова:** наказание, назначение наказания, форма вины, смягчающие обстоятельства, преступление, ответственность, способ преступления, мотив, степень опасности преступления, характер медицинской или иной помощи, другие обстоятельства.

## THEORETICAL ANALYSIS OF THE GENERAL FOUNDATIONS OF SENTENCING

Rozimova Kunduz Yuldashevna

Associate Professor,  
Tashkent State University of Law,  
PhD in Law

**Abstract.** This article notes the theoretical and legal grounds for the importance of mitigating circumstances established by criminal law in the imposition of a lighter punishment, as well as the fact that the imposition of a lighter punishment is directly related to the mitigating circumstances. The article examines the opinions of national and foreign scientists about the legal nature of mitigating circumstances. Also, Article 55 of the Criminal Code provides for mitigating circumstances, which are used directly by the courts during the sentencing process. At the same time, if the mitigating circumstance is provided as a necessary sign of the crime in the relevant articles of the Special Part of the Criminal Code, it is based on examples that it should not be taken into account when imposing punishment. This article also provides an analysis of the norms of the Criminal Codes of other countries regarding the mitigating circumstances that are taken into account when sentencing. Also, this article emphasizes the need to expand the list of mitigating circumstances in sentencing and presents justified suggestions.

**Keywords:** punishment, sentencing, a form of guilt, mitigating circumstances, crime, responsibility, method of crime, motive, degree of dangerousness of the crime, nature of medical or other assistance, other circumstances.

### Kirish

Jinoyat huquqi nazariyasida yengilroq jazo tayinlashda jinoyat qonunida belgilangan jazoni yengillashtiruvchi holatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, davlat jinoyat qonunida yengillashtiruvchi holatlar doirasini belgilash huquqni qo'llovchilarga yengilroq jazo tayinlash imkoniyatini yaratadi va huquqiy mexanizmlarni shakllantiradi.

Nazariy jihatdan kengroq yondashganda, yengilroq jazo tayinlashda jinoyat qonunida belgilangan yengillashtiruvchi holatlar o'ziga xos ahamiyatga ega.

Yengilroq jazo tayinlash bevosita jazoni yengillashtiruvchi holatlar bilan bog'liqligi sababli quyida ushbu institutning nazariy va huquqiy asoslarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar milliy va xorijiy huquqshunos olimlar o'rta-sida jazoni yengillashtiruvchi holatlarning yuridik tabiatni to'g'risida yagona yondashuv mavjud emas.

Bunda ayrim xorijiy olimlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar jinoyat qonunida nazarda tutilgan aybni yengillashtiradi [1], aybning darajasiga ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelsalar [2, 3], boshqa bir guruh olimlar esa jazoni yengillashtiruvchi holatlar qilmishning ijtimoiy xavfliligiga ta'sir ko'rasatadi, degan g'oyani ilgari suradilar [4]. Uchinchi guruh olimlar yuqoridagilardan farqli ravishda, jazoni yengillashtiruvchi holatlar mohiyatan javobgarlikni yengillashtirishga xizmat qiladi, degan fikrni ham ta'kidlayilar [5, 6]. Va nihoyat, to'rtinchi guruh

olimlar yuqorida qayd etilgan holatlar bevosita jazoni yengillashtirishga xizmat qiladi, degan xulosaga keladilar [7].

### Material va metodlar

Yuqoridagi olimlarning nazariy yondashuvlaridagi ayrim masalalarga to'xtalib o'tsak. Birinchi va ikkinchi guruh olimlar jazoni yengillashtiruvchi holatlarning ayb yoki ayb darajasiga ta'sir ko'rsatishi, ya'ni yengillashtirishini ta'kidlaydilar. Biroq ayb instituti bevosita jinoyat sodir etilganda namoyon bo'ladi. Uning qasddan yoki ehtiyoitsizlikdan amalga oshirilganligini aniqlaydi xolos. Zero, jinoyat qonuniga ko'ra, faqatgina aybli ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat sifatida e'tirof etiladi.

Uchinchi guruh olimlar tomonidan bildirilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarning javobgarlikni yengillashtirishga xizmat qilishi haqidagi fikrlarni tahlil qilar ekanmiz, bevosita jinoyat huquqi institutlariga murojaat qilamiz.

Bunda jinoyat sodir qilgan shaxs qachon javobgarlikka tortiladi, degan savol tug'iladi. Jinoyat kodeksi jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha belgilari mavjudligi shaxsni javobgarlikka tortish uchun asosdir. Zero, jinoyat belgilarining biorrtasi mavjud emasligi shaxsni javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz jazoni yengillashtiruvchi holatlar faqatgina jazo chorasini yengillashtirishga xizmat qiladi, degan fikrni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz.

### Tadqiqot natijlari

Milliy huquqshunos olimlar o'rtasida ham jazoni yengillashtiruvchi holatlar instituti borasida yagona qarash mavjud emasligini alohida qayd etish joiz.

Jumladan, huquqshunos M. Usmonaliyev jinoyat qonunida belgilangan jazoni yengillashtiruvchi holatlarda qonun chiqaruvchi organ jinoyat sodir etish va jinoyatchi shaxsiga jiddiy ta'sir qiladigan holatlarnigina jazoni yengillashtiruvchi holatlar qatoriga kiritgan, degan xulosaga keladi [8].

Yana bir olim Y. Turg'unboyev jazoni yengillashtiruvchi holatlarni sud jazo tayin-

lashda hisobga oladigan holatlar sifatida kelтирib o'tib, yengillashtiruvchi holatlarni sanab o'tish bilan cheklanadi [9].

Professor M.X. Rustamboyev o'z asarida M.A. Skryabin yengillashtiruvchi holatlar bo'yicha quyidagi tasnifni taklif qilganligini ta'kidlaydi [10]:

- faqat jinoyatning o'ziga tegishli holatlar;
- faqat aybdorning o'ziga tegishli holatlar;
- aybdor shaxsi va jinoyatga tegishli holatlar.

Shu bilan birga, M.A. Skryabin yengillashtiruvchi holatlarni tasniflash bo'yicha yuqorida keltirilgan tasniflashni qo'llab-quvvatlab, bunday tasniflash amaldagi JKda ko'rsatilgan yengillashtiruvchi holatlarga to'g'ri kelishini aytadi [11].

Bundan tashqari, olim o'zining yana bir asarida jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holatlar faqatgina jazoni yengillashtirish uchun asos bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi [12].

JKning 55-moddasida jazoni yengillashtiruvchi 9 ta holat nazarda tutilgan bo'lib, ular jazo tayinlash jarayonida bevosita sudlar tomonidan qo'llanadi. Bunda Oliy sud Plenumi qarorida sudlar tomonidan jinoyat ishi bo'yicha chiqariladigan hukmda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar albatta ko'rsatilishi talab etilishi bo'yicha sudlarga tushuntirish berilgan.

Amaldagi JK quyidagi holatlarni jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb e'tirof etadi:

- aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish;
- yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish;
- og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish;
- majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish;
- jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tu-

fayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish;

- zaruriy mudofaa, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushslash, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish;

- voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi;

- homilador ayolning jinoyat sodir etishi;

- jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etish.

O'z navbatida, jinoyat qonuni jazo tayinlashda sud yuqorida nazarda tutilmagan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkinligini mustahkamlaydi.

Jinoyat qonunida nazarda tutilmagan qanday holatlar jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida e'tirof etilishi mumkin, degan savonga javob O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-son qarorida aks etgan.

Unga binoan, jazo tayinlash paytida JKning 55-moddasida ko'rsatilmagan boshqa holatlar ham jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi mumkin. Bunday holatlarga misol sifatida ijtimoiy xavfliligi katta bo'lмаган jinoyatning birinchi marta sodir etilishi, sudlanuvchining yosh bolasi borligi, jinoyatning birovga rahmdillik ko'rsatilishi sababli sodir etilishi, aybdor tomonidan bevosita jinoyat sodir etilganidan so'ng jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa tarzda yordam ko'rsatilishi va h.k.lar keltirilgan.

Shu bilan birga, Oliy sud Plenumining yuqorida qayd etilgan qarori har qanday holatni jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida e'tirof etishning zaruriy shartini nazarda tutadi. Bunda sud tomonidan jazoni yengillashtiruvchi deb topilganligi haqidagi xulosa hukmida asoslantirilishi talab etiladi.

JKning 55-moddasiga muvofiq, yengilashtiruvchi holat JK Maxsus qismining moddasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, jazo tayinlashda hisobga olinmaydi. Masalan, JKning 98-moddasida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish, ya'ni jabrlanuvchi tomonidan qilingan g'ayriqonuniy zo'rlik yoki og'ir haqorat, shuningdek, uning boshqa g'ayriqonuniy harakatlari tufayli to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Negaki ushbu jinoyat tarkibining zaruriy belgisi qasddan odam o'ldirish kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilganligi sababli yengilroq jazo belgilanganligi bois jazo tayinlashda JKning 55-moddasasi hisobga olinmaydi.

MDH davlatlari Jinoyat kodekslari normalarini tahlil qilar ekanmiz, ularda jazoni yengillashtiruvchi holatlar doirasining kengligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Masalan, Ozarbayjon JK 59-moddasining 59.1.12-bandida jabrlanuvchi (fuqaroviya'dovgar) bilan yarashish jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida keltirilgan [13].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, amaldaagi JKning 66<sup>1</sup>-moddasida yarashuv instituti mavjud bo'lib, ushbu institut jinoyat sodir qilgan shaxsni jazodan emas, balki jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutadi. Qolaversa, JKning yuqoridagi moddasi ikkinchi qismida og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tuggallangan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmasligi haqida alohida qoida belgilangan bo'lsa-da, yarashilganlik holati jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri bo'lishi mumkinligi qayd etilmagan.

Vaholanki, jabrlanuvchi (fuqaroviya'dovgar) bilan yarashishning jazoni yengillashti-

ruvchi holatlardan biri sifatida jinoyat qonunda belgilanishi kelgusida jinoyat sodir qilgan shaxs bilan jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashmasligining oldini olishi, jabrlanuvchining huquqni muhofaza qiluvchi organlarga haqiqat izlab sarson bo'lmasligi va nihoyat, jabrlanuvchi tomonidan turli motivlar ta'sirida (masalan, o'ch olish) jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan boshqa jinoyatlar sodir etilishining oldi olinishiga xizmat qildi.

### Tadqiqot natijalari tahlili

Ta'kidlash joizki, huquqni qo'llash amaliyotida sudlar JKning yuqorida qayd etilgan normasidan foydalanib kelmoqdalar. Bunga sud amaliyotidan bitta misol: 2022-yil 18-oktabr kuni sudlanuvchi J. Obidjonov jinoyat ishlari bo'yicha Chortoq tuman sudi tomonidan Jinoyat kodeksining 168-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan ayblangan. Jinoyat ishini ko'rib chiqish davomida unga jazo turi va miqdorini tayinlashda aybiga to'liq iqrarligi, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligi, muqaddam sudlanmaganligi, yetkazilgan zararlar to'liq qoplanib, jabrlanuvchilarining da'vosi yo'qligini jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar mavjud emas deb topilgan. Chortoq tuman "Navbahor" MFY tomonidan berilgan dalolatnomada B.Obidjonovning qarzdorligi ko'pligi sababli 2021-yil sentabr oyida o'zi va ota-onasiga tegishli uyjoy va mol-mulklarini sotib, ishslash maqsadida barcha oila a'zolari bilan Rossiya davlatiga ketgani, hozirgi kunda uning yashash uyi yo'qligi, oila a'zolari va ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari Rossiya davlatida ekani ko'rsatilgan. Shu bois unga nisbatan JKning 57-moddasi qo'llanib, u aybli deb topilayotgan JKning 168-moddasi 3-qismi sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosining eng kam qismidan ham kamroq jazosi tayinlash lozim deb topilgan.

Bunda sud o'z hukmida JKning 168-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan JKning 57-moddasini qo'llab, bazaviy hisoblash miqdori-

ning 150 (bir yuz ellik) baravari miqdorida 36 750 000 (o'ttiz olti million yettiz yuz ellik ming) so'm jarima jazosi tayinlaydi.

Vaholanki, JKning amaldagi 168-moddasi 3-qismi sanksiyasida BHMning uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda, besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan.

Amaldagi jinoyat qonuni sudlarga faqat JKning 57-moddasi orqali JK Maxsus qismi moddalari sanksiyasida ko'rsatilgan jazordan ham yengilroq jazo qo'llash imkoniyatini mustahkamlaydi.

Sud hukmlari tahlilining ko'rsatishicha, JKning 57-moddasini qo'llamasdan JK Maxsus qismi sanksiyasida nazarda tutilmagan jazo tayinlash sud hukmining o'zgartirilishiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha So'x tuman sudining 2021-yil 3-fevraldagi hukmiga ko'ra, Y.M. JKning 168-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan 2 yil ozodlikni cheklash jazosi bilan sudlangan. Vaholanki, JK 168-moddasining 3-qismi sanksiyasida besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo'lib, sudda 57-moddani qo'llamasdan besh yildan kam muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash valolati mavjud emas edi. Chunki aynan JKning 57-moddasida sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarni e'tiborga olib, alohida hollarda JK Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdag'i jazoni tayinlashi mumkinligi belgilangan.

Biroq sud hukmining tavsif qismida JKning 168-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan Y.M.ga jazo tayinlashda qilmishidan pushaymonligi, jabrlanuvchining da'vosi yo'qligi, qaramog'ida voyaga yetmagan bir nafar farzan-

di borligi inobatga olinib, unga qonun sanksiyasi doirasida JKning 57-moddasini qo'lllamagan holda, 2 yil ozodlikni cheklash jazosi tayinlanib, JPKning 541-moddasi tartibida JKning 57-moddasi qo'llangan deb hisoblash haqida qo'shimcha ajrim chiqarilgan.

Bunda sud Y.M.ning qilmishini to'g'ri kvalifikatsiya qilgan bo'lsa-da, unga jazo tayinlashda tegishli talablarga rioxay qilmay, ya'ni JKning 57-moddasini qo'llamasdan, modda sanksiyasida nazarda tutilmagan ozodlikni cheklash jazosini tayinlab, xatoga yo'l qo'ygan.

Aslida, JKning 168-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan tayinlangan ozodlikni cheklash jazosini JKning 57-moddasini qo'llagan holda tayinlash lozim edi.

Yana bir haqli savol tug'iladi: sudlar tomonidan JK 57-moddasi qo'llanmaganligi sud qarori o'zgartirilishiga sabab bo'lishi mumkinmi? Sud hukmlari tahlilining ko'rsatishicha, sudlar tomonidan JK 57-moddasi qo'llanmaganligi sud qarori o'zgartirilishiga sabab bo'lgan holatlar ham amaliyotda uchraydi.

Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha Zarafshon shahar sudining 2021-yil 28-apreldagi hukmiga ko'ra, J. JK 168-moddasining 3-qismi "b" bandi bilan 5 yil, JK 59-moddasi 8-qismi tartibida 6 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan sudlangan.

Biroq birinchi instansiya sudi J.ning harakatini to'g'ri kvalifikatsiya qilgan bo'lsa-da, unga nisbatan jazo turi va miqdorini tayinlashda sodir etilgan jinoyat xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, jinoyat oqibatida yetkazilgan zararlar qoplanmaganligini inobatga olib, shuningdek, uning xizmat vazifasi bilan bog'liq bo'lmasan holda jinoyat sodir etganini e'tirof etib, muayyan huquqdan mahrum etmagan holda, u ayblanayotgan modda sanksiyasi doirasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash haqida adolatli qaror qabul qilgan bir vaziyatda, JKning 57-moddasini qo'llagan holda, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini qo'lla-

maslik mumkinligini inobatga olmasdan xatoga yo'l qo'ygan.

Oliy sud Plenumining 2006-yil 3-fevral-dagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-son qaroring 42-bandida, agar jinoiy qilmish kvalifikatsiya qilinayotgan qonunda qo'shimcha jazo majburiy tarzda tayinlanishi belgilangan bo'lsa, uni faqat JK 57-moddasida nazarda tutilgan hollar mavjud bo'lganda qo'llamaslik mumkin bo'lib, bunday qaror ushbu moddaga havola qilingan holda, hukmda asoslan-tirilishi lozimligi haqida sudlarga rahbariy ko'rsatma berilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, sudlov hay'ati sudlangan J.ning firibgarlik jinoyatlarini mansabi yoki xizmat faoliyati bilan bog'liq holda so-dir etmaganligini yana bir karra e'tirof etgan holda, JK 168-moddasining 3-qismi "b" bandi bilan unga nisbatan JKning 57-moddasini qo'llab, majburiy tarzda tayinlanishi belgilangan qo'shimcha jazoni qo'llamasdan, sanksiya doirasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlab, to'g'ri xulosaga kelgan.

Nazarimizda, *jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) ning da'vosi yo'qligi* holatini ham jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holat sifatida JKda nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Aksariyat xorijiy davlatlar jinoyat qonunida jinoyat sodir etilganidan so'ng jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa tarzda yordam ko'rsatish jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida nazarda tutilgan. Jumladan, Armaniston JK 61-moddasi 10-bandida jinoyatdan so'ng jabrlanuvchiga bevosita tibbiy yoki boshqa yordam ko'rsatish, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy va ma'naviy zararni ixtiyoriy qoplash javobgarlik va jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida belgilangan [13].

Belorusiya JKning 63-moddasi 4-bandida jinoyat sodir qilgandan so'ng jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa yordam ko'rsatish, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan daromadni qaytarish, yetkazilgan zararni ixtiyoriy

qoplash, zararni qoplashga qaratilgan boshqa harakatlarni sodir qilish javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan [14].

Yuqoridagiga o'xshash norma Rossiya JKda ham belgilangan. Mazkur kodeksning 61-moddasida jazoni yengillashtiruvchi holatlar qayd etilgan. Bunda ushbu moddaning "k" bandida ham aybdor tomonidan jinoyat sodir etilgandan so'ng tibbiy va boshqa yordam ko'rsatilishi, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zarar hamda ma'naviy ziyonni ixtiyoriy qoplash, shuningdek, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qaytarishga qaratilgan boshqa harakatlar ham jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida mustahkamlangan [15].

Aynan Yuqoridagi qoida Tojikiston JK 61-moddasining "k" bandida jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida belgilangan [16].

O'xshash qoida Ukraina JKning 66-moddasida ham nazarda tutilgan. Bunda Rossiya va Tojikiston jinoyat qonunidan farqli ravishda, Ukraina JKning 66-moddasi 2<sup>1</sup>-bandida faqatgina jinoyat sodir qilgandan so'ng tibbiy yoki boshqa yordam ko'rsatish holati jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida bayon etilgan. Shu bilan birga, Ukraina JKning 66-moddasida yetkazilgan zararni qoplaganlik yoki zararni bartaraf etish holati ham jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida alohida banda nazarda tutilganligini ta'kidlash joiz [17].

Rossiya va Tojikistondan farqli ravishda, Turkmaniston JKning 57-moddasida jazoni emas, balki javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar nazarda tutilgan. Bunda ushbu moddaning m-bandida jinoyat sodir qilgandan so'ng bevosita jabrlanuvchiga tibbiy va boshqa yordam ko'rsatilishi, jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararning ixtiyoriy qoplanishi yoki bartaraf etilishi, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni bartaraf etishga qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida bayon etilgan [18].

Guvoх bo'lganimizdek, yuqorida ko'rib o'tgan barcha davlatlarda jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa yordam berish jazo yoki javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida jinoyat qonunida qat'iy belgilangan. Bunda ayrim davlatlar jinoyat qonunida (masalan, Turkmaniston) jabrlanuvchiga bir vaqtning o'zida ham tibbiy va boshqa yordam berish talab etilsa, ba'zi davlatlarda (masalan, Belarus, Tojikiston) esa jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa yordam berishning o'zi yetarli hisoblanishi jinoyat qonunida qat'iy belgilangan.

S. Mahmudov O'zbekiston jinoyat qonunida jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida tibbiy yordam ko'rsatishning nazarda tutilishi jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'i uchun, ayniqsa, jinoyat aholi punktlaridan uzoqda joylashgan bo'lsa, ko'proq zararli oqibatlar kelib chiqishining oldini olishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga jinoyat sodir etilganidan keyin jabrlanuvchiga darhol tibbiy va boshqa yordam ko'rsatish holating jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida kiritilishi quyidagi 2 ta amaliy jihatni o'zida ifoda etadi [19]:

- birinchidan, jinoyat qonunchiligini zamonaviy yurisprudensiya talablari asosida xalqaro standartlarga unifikatsiya qilish va muvofiqlashtirishga xizmat qiladi;

- ikkinchidan, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazo tayinlashda jazoni yengillashtiruvchi holat(lar)ni qo'llash orqali aybdor shaxsning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlaydi.

Ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunida javobgarlik yoki jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida aybdorning qaramog'ida voyaga yetmagan farzandi borligi nazarda tutilganligini ta'kidlash joiz.

Masalan, Armaniston JKning 62-moddasida javobgarlik va jazoni yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati nazarda tutilgan. Bunda ushbu moddaning 4-bandida jazo tayinlash vaqtida aybdor qaramog'ida 14 yoshgacha

bo'lgan bolalarning mavjudligi javobgarlik va jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida qayd etilgan [20].

Yuqoridagiga o'xshash norma Belarus JK 63-moddasining 5-bandida qayd etilgan. Bunda aybdorning boquvida yosh bola borligi javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida e'tirof etilgan [14].

Xuddi shunday holatni Ozarbayjon JK 59-moddasining 59.1.4-bandida ham uchratish mumkin. Unda jinoyat sodir qilgan shaxsning boquvida yosh bola borligi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida keltirilgan [15]. Aynan o'xshash norma Rossiya JK 61-moddasining g-bandida [16], Tojikiston JK 61-moddasining g-bandida [17] jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida qayd etilgan.

Qozog'iston jinoyat qonunida ham mazmunan yuqoridagiga o'xshash normani ko'rish mumkin. Bunda JK 53-moddasining 4-bandida aybdorda yosh bolalar borligi jinoiy javobgarlik va jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida nazarda tutilgan [21]. E'tibor qaratadigan bo'lsak, jinoyat qonuni yosh bolaning aybdor qaramog'ida yoki boquvida ekanligiga ahamiyat bermagan. Ya'ni aybdorda yosh bola borligi faktining o'zi uning javobgarligi va jazosini yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olinadi.

Turkmaniston jinoyat qonunida esa o'zgacha holatga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bunda JK 57-moddasining g-bandida aybdorda ko'p bolali oilasi yoki yosh farzandi borligi javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Demak, Turkmaniston jinoyat qonuni nafaqat yosh bolasi, balki ko'p bolali oilasining mavjudligini ham yengillashtiruvchi holat sifatida nazarda tutadi. Bunda qonun bolaning yoshi masalasiga ustuvor ahamiyat bermasdan ularning soniga e'tibor qaratgan [19].

### Xulosalar

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, xorijiy davlatlar jinoyat qonunida jinoiy javobgarlik yoki jazoni yengillashtiruvchi holatlar

doirasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan jazoni yengillashtiruvchi holatlarga nisbatan kengligi bilan ajralib turadi. O'z navbatida, xorijiy davlatlar jinoyat qonuning ijobiy tajribasidan foydalanish milliy jinoyat qonunimizning yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 55-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

*"55-modda. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar*

Quyidagi holatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topiladi:

a) aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish;

b) *jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar)ning da'vosi yo'qligi;*

d) jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish;

e) *jinoyat sodir etilganidan so'ng jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa tarzda yordam ko'rsatish;*

d) og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish;

f) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish;

g) *jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tu-fayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish;*

h) zaruriy mudofaa, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushslash, asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish;

i) *voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi;*

j) *aybdorning qaramog'ida voyaga yetmagan farzandi mavjudligi;*

k) homilador ayolning jinoyat sodir etishi;

I) jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki ax-loqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat so-dir etish.

Jazo tayinlashda sud ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.

Yengillashtiruvchi holat ushbu kodeksning maxsus qismi moddasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, jazo tayinlashda hisobga olinmaydi".

Jinoyat qonuniga ushbu normaning kiritilishi yengilroq jazo tayinlash qoidalarining yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Shargorodskiy M. D. Vina i nakazaniye v sovetsknom ugolovnom prave [Guilt and Punishment in Soviet Criminal Law]. Moscow, 1945, pp. 13, 20–29.
2. Sergeyeva T.L. Voprosy vinovnosti i viny v praktike Verkhovnogo Suda SSSR po ugolovnym delam [Questions of guilt in the practice of the Supreme Court of the USSR on criminal cases]. Moscow, 1950, p. 43.
3. Bazhanov M.I. Smyagchayushchiye i otyagchayushchiye otvetstvennost' obstoyatel'stva pri naznachenii nakazaniya [Mitigating and aggravating circumstances in sentencing]. Issues of State and Law, Moscow, 1974, p. 250.
4. Karpets K I. Nakazaniye: sotsial'nyye, pravovyye i kriminologicheskiye problemy [Punishment: social, legal and criminological problems]. Moscow, 1973, p. 159.
5. Krutikov L.L. Pravovaya priroda smyagchayushchikh i otyagchayushchikh nakazaniye obstoyatel'stv [Legal nature of mitigating and aggravating circumstances]. *Criminal Law*, 1999, no. 4, p. 18.
6. Taskin S.S. Otyagchayushchiye obstoyatel'stva i ikh znacheniye dlya individualizatsii ugolovnoy otvetstvennosti i nakazaniya [Aggravating circumstances and their significance for the individualization of criminal liability and punishment]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1981, p. 9.
7. Kuznetsova N.F, Kurinoye B.A. Otyagchayushchiye i smyagchayushchiye obstoyatel'stva, uchityvayemyye pri opredelenii mery nakazaniya [Aggravating and mitigating circumstances taken into account when determining the measure of punishment]. *Application of Punishment under Soviet Criminal Law*. Moscow, 1958, p. 101.
8. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2005, 462 p.
9. Turgunboyev E.O. Jinoyat huquqi [Criminal Law]. Album Schemes. Resp. ed. Q.R. Abdurasulova. Tashkent, TSUL Publishing house, 2013, pp. 76–77.
10. Skryabin M.A. Obshchee nachalo naznacheniya nakazaniya i ikh primeneniye nesovershennoletnim [The general beginning of sentencing and their application to minors]. Kazan University Press, 1988, p. 76.
11. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, ILM ZIYO Publ., 2006, pp. 402–403.
12. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Vol. II. The doctrine of punishment. Tashkent, ILM ZIYO Publ., p. 82.
13. Criminal Code of the Republic of Azerbaijan. Approved by the Law of the Republic of Azerbaijan dated December 30, 1999 No. 787-IQ, with amendments and additions. Available at: <https://continent-online.com/Document/>.
14. Criminal Code of the Republic of Armenia. Available at: [http://www.parliament/.](http://www.parliament/>.)
15. Criminal Code of the Republic of Belarus. Available at: [https://kodeksy-by.com/ugolovnyj\\_kodeks/](https://kodeksy-by.com/ugolovnyj_kodeks/).
16. Criminal Code of the Russian Federation of June 13, 1996 N 63-FZ, as amended on September 24, 2022. Available at: [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW/).

17. Criminal Code of the Republic of Tajikistan. Available at: <http://ncz.tj/content/>.
18. Criminal Code of Ukraine dated April 5, 2001 No. 2341-III. Available at: <https://online.zakon.kz/>.
19. Criminal Code of Turkmenistan dated June 12, 1997 No. 222-I. Available at: <https://online.zakon.kz/>.
20. Maxmudov S.A. Ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligidagi jazoni yengillashtiruvchi holatlarning o'ziga xos xususiyatlari [Specific features of mitigating circumstances in the criminal law of some foreign countries]. *Young Scientist*, 2020, December, no. 51 (341), vol. 6, pp. 480–483. Available at: <https://moluch.ru/archive/>.
21. Criminal Code of the Republic of Kazakhstan, with amendments and additions. Available at: <https://online.zakon.kz/document/>
22. Rozimova Q. Improving the penal institution for several crimes in the criminal law of Uzbekistan. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 2022, no. 7, pp. 12–17.
23. Rozimova Q. Improving the penal institution in the criminal law of Uzbekistan. *Current Approaches and New Research in Modern Sciences*, 2023, vol. 2 (2), pp. 60–68.
24. Rozimova Q. Several crimes in the criminal law of Uzbekistan. *Science and Innovation*, 2022, vol. 1 (C7), pp. 212–218.

# **YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI**

## **ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК**

## **REVIEW OF LAW SCIENCES**

**Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal**

**Правовой научно-практический журнал**

**Legal scientific-practical journal**

**2023-yil 1-son**

**VOLUME 7 / ISSUE 1 / 2023**

**DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.1.**

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d., professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,

Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

**Musahih:** M. Patillaryeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 24.03.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,8 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 12.

TDYU tipografiyasida chop etildi.